



ISSN 2091-5187

СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ЖУРНАЛ

2024
2/2-сон



МУНДАРИЖА:

НАЗАРИЯ ВА МЕТОДОЛОГИЯ	
Соҳибназар Каримов Тасаввуф таълимотида тарбия хизмати масаласи	5
Diyor Haqberdievich Xolmamatov Ulgurji savdoni iqtisodiyotdagi o‘rni va ahamiyati bilan bog‘liq ilmiy-nazariy qarashlar	11
Shohida Kamoliddin qizi Jo‘raboyeva Eksport salohiyati tushunchasining konseptual asoslari	15
Rustam Nuridinovich Jiyamuratov Hududiy eksport salohiyatini oshirishga oid nazariy yondashuvlar	22
РАҚАМЛИ ВА ИННОВАЦИОН ИҚТИСОДИЁТ	
Ziyobidin Shaminovich Suvonov Sun‘iy intellekt va uning imkoniyatlari	27
САНОАТ ВА ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ	
Фарход Бахриддинович Ахроров Ўзбекистонда ер ресурсларини баҳолашнинг экологик-иқтисодий услубияти	31
Shexroza Madjitovna Karimova Qovoq – funksional oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishda istiqbolli xomashyo	36
ТАДБИРКОРЛИК, МЕХНАТ, БАНДЛИК ВА КАМБАҒАЛЛИКНИ ҚИСҚАРТИРИШ	
Феруза Асатовна Ишонкулова Необходимые условия для успешной деятельности предпринимательства в Республике Узбекистан	39
Rahmatillo Miralimovich Egamov, Rushona Sheraliyevna Husainova Hududiy iqtisodiyotning rivojlanishida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning o‘rni	45
ХИЗМАТ КЎРСАТИШ ВА СЕРВИС	
Сарвар Аюбовна Исхакова Хизмат кўрсатиш соҳасини ривожлантиришда тadbirkorlikнинг салоҳиятидан фойдаланиш имкониятлари	49
Zoxid Sobirovich Axmedov Transport logistikasi xizmatlari samaradorligini oshirishda innovatsion jarayonlarning qo‘llanilishi	53
Обид Мамаюнович Пардаев Хизмат кўрсатиш соҳасини такомиллаштириш ҳисобига маҳаллалар ободлигини таъминлаш масалалари	57
Фарход Анварович Сафаров Ўзбекистонда хизматлар соҳасининг комплекс стратегик таҳлилини TOWS-матрицаси ёрдамида амалга ошириш имкониятлари	60
Orzujon Mamasoliyevich Rajabov Logistika xizmatlari samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish	65
Bekzod Maxsudovich Abdumannonov Ekologik toza jamoat transportidan samarali foydalanish – avtomobillar tirbandligini bartaraf etishning kafolatidir	70

Diyor Haqberdiyevich Xolmamatov – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti mustaqil izlanuvchisi

ULGURJI SAVDONI IQTISODIYOTDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI BILAN BOG‘LIQ ILMIY-NAZARIY QARASHLAR

Annotasiya: maqolada mamlakat iqtisodiyotida ulgurji savdoning o‘rni va ahamiyati bo‘yicha yetakchi olimlarning ta‘riflari, ulgurji savdoning bajaradigan asosiy funksiyalari, O‘zbekiston Respublikasining O‘zDT 005:2011 Davlat standarti “O‘zbekiston Respublikasi umumdavlat tasniflagichi. O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari tasniflagichi (2 taxrir)” va xalqaro iqtisodiy faoliyat turlari tasniflagichi bo‘yicha ulgurji savdoning tasniflanishi o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: o‘z hisobidan ulgurji savdo, to‘lov yoki shartnoma asosida ulgurji savdo, ixtisoslashmagan ulgurji savdo, ixtisoslashgan ulgurji savdo, mijoz-xaridorlar bilan aloqalarni o‘rnatish funksiyasi, mijoz-yetkazib beruvchilar bilan aloqalarni o‘rnatish funksiyasi.

Kirish. Mamlakat hududlari, iqtisodiyot tarmoqlari, tovar ishlab chiqaruvchilar va chakana savdo korxonalarini o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlar tizimida ulgurji savdo muhim o‘rin tutadi. Ulgurji savdo hududiy mahsulot ishlab chiqarish, sanoat tarmoqlari o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalarga, tovarlar harakati tizimiga ta‘sir ko‘rsatadi. Shuningdek, mamlakatda tovarlarni tashish, saqlash, hududiy mehnat taqsimotining takomillashuviga ta‘sir qiladi, hududiy rivojlanishda mutanosiblikka erishishga ko‘maklashadi.

Butun iqtisodiyotning kompleks faoliyat samaradorligi, ichki bozor muvozanati, insonlarning o‘ziga borayotgan ehtiyojlarini qondirish ko‘p jihatdan ulgurji savdo faoliyati bilan bog‘liq. Mamlakatda tovar va moliya bozorlarida monopoliyaning bosqichma-bosqich kamayishi, raqobat muhitining shakllanishi, iqtisodiyotda davlat ishtirokining qisqarishi va bozor mexanizmlari asosida ishlashga o‘tilishi ulgurji savdo faoliyatining sezilarli darajada ahamiyatini oshirmoqda.

Tovar-pul munosabatlari rolining kuchayishi nafaqat iste‘mol tovarlari ulgurji savdosining rivojlanishi, balki ishlab chiqarish vositalarining ulgurji savdosiga o‘tishi bilan ham bog‘liq. Bu ikki shakl moddiy-texnikaviy va tovar resurslarining rejali harakatining eng muhim kanallariga aylanib bormoqda.

Mavzu bo‘yicha adabiyotlar tahlili. Ulgurji savdoni iqtisodiyotdagi o‘rni va ahamiyati unga berilgan ta‘riflarning mazmunida ham aks etgan. Aksariyat ulgurji savdoga berilgan ta‘riflardan ham ko‘rish mumkinki, ulgurji savdo biznes maqsadlarida tovarlarni yirik hajmda xarid qilish va qayta sotish bilan bog‘liq savdo faoliyatining turi sifatida talqin qilingan. Jumladan, barcha iqtisodiy faoliyat turlarining tasniflagichi bo‘yicha xalqaro standart va O‘zbekiston Respublikasining davlat standartiga ko‘ra “ulgurji savdo – bu yangi yoki ishlatilgan tovarlarni chakana sotuvchilarga, ishlab chiqarish, savdo, muassasa yoki kasbiy foydalanuvchilarga yoki boshqa ulgurji sotuvchilarga qayta sotish (o‘zgartirmasdan sotish), boshqa shaxslar yoki kompaniyalar nomidan tovarlarni sotib olish yoki ularga tovar sotish bo‘yicha agentlar faoliyati” deb ta‘riflangan.

Shuningdek, Rossiya Federatsiyasining milliy standartida “ulgurji savdo – shaxsiy, oilaviy, uy xo‘jaligi va boshqa shunga o‘xshash foydalanish bilan bog‘liq bo‘lmagan, tadbirkorlik faoliyatida foydalanish uchun tovarlarni sotib olish va qayta sotish bilan bog‘liq bo‘lgan savdo faoliyati turi” deb ta‘riflangan.

Demak, xalqaro iqtisodiy faoliyat turlari tasniflagichi va O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari tasniflagichi (2 tahrir) bo‘yicha ulgurji savdoga berilgan ta‘riflar bir xil mazmunga ega. Ulgurji savdo faoliyati bilan bog‘liq ilmiy tadqiqot ishlari olib borgan mutaxassislar ham ilmiy ishlarida ulgurji savdoga berilgan ta‘riflarida ushbu faoliyatning iqtisodiyotdagi o‘rni va ahamiyatini ochib berishga e‘tibor qaratilgan.

Mutaxassis olimlardan biri Fedko V.P. “ulgurji savdo – bu tovarlarni nisbatan katta hajmda sotishdir” deb ta‘riflagan. Demak, ulgurji savdoga xos bo‘lgan muhim jihatlarda katta hajmda xarid qilish, qayta sotish hisoblanmoqda. Yetakchi marketing bo‘yicha olim Philip Kotler ta‘rifiga ko‘ra “ulgurji savdo – tovarlar yoki xizmatlarni keyinchalik qayta sotish yoki ishlab

chiqarishda foydalanish uchun sotish bilan bog‘liq har qanday faoliyat”. Rossiyalik ulgurji savdo faoliyati bilan bog‘liq tadqiqotlar olib borgan yetakchi olimlardan L.P.Dashkov, O.V.Pambuxchiyslarning ta’riflari bo‘yicha ulgurji savdo – tovarlarni keyinchalik qayta sotish yoki professional foydalanish bilan bog‘liq savdo faoliyatidir.

Mutaxassislarning ulgurji savdoga bergan ta’riflaridan ko‘rinib turibdiki, ulgurji savdo iqtisodiyotda ikki katta segment, ya’ni ishlab chiqarish korxonalariga ishlab chiqarish vositalarini va iste’mol bozoriga tayyor mahsulotlarni sotish bilan shug‘ullanadigan faoliyat hisoblanadi.

Ulgurji savdo orqali iste’molchining ishlab chiqaruvchiga ta’siri kuchayadi, talab va taklifni tartibga solishning real imkoniyatlari paydo bo‘ladi. Demak, ulgurji savdo ishlab chiqaruvchi va iste’molchi o‘rtasidagi aloqalarni bog‘lashda ham muhim o‘ringa ega. Bu borada O.P.Matveyeva va A.V. Surjenkolar bozordagi mavqeiga ko‘ra ulgurji savdo ham tovar ishlab chiqaruvchilar, ham iste’molchilar bilan bevosita tijorat aloqalarini o‘rnatadigan iqtisodiyotning muhim sohasi ekanligini o‘z tadqiqotlarida ta’kidlab o‘tgan.

Ulgurji savdoni iqtisodiyotdagi o‘rni va roli haqida xorijiy mutaxassislardan A.Koskun Samli va Adel I. E.I. Ansariy (A.Coskun Samli & Adel I. EI-Ansary)lar iqtisodiy o‘shni ta’minlash, bozorlarni rivojlanishida ulgurji savdo katta rol o‘ynaydi, deb ta’kidlaydi. Ular o‘z tadqiqotlarida iqtisodiyoti rivojlangan davlatlar tajribasidan kelib chiqib, shuni ta’kidlashdiki, yirik ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘ygunga qadar bozorlarni to‘yintirishda ulgurji savdo bilan shug‘ullanuvchilar faoliyati markaziy o‘rinda turgan. Yana bir xorijiy mutaxassis Xyu Makkaun (Hugh MacKeown) ulgurji sotuvchilar ishlab chiqaruvchilarni tovarlarni qadoqlash, o‘rab-joylash, saqlash va yetkazib berish muammolaridan qutqaradigan o‘ziga xos xizmatlarni ko‘rsatadi. Bundan tashqari, ulgurji sotuvchilar ishlab chiqaruvchilarga va chakana sotuvchilarga foyda keltiradigan avanslar beradi degan fikrni ilgari surgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Ulgurji savdoni iqtisodiyotdagi o‘rni va ahamiyati bilan bog‘liq ilmiy-nazariy qarashlar xorijiy va MDH olimlarining ta’riflarini taqqoslash, tizimlashtirish, ulgurji savdo funksiyalarini o‘rganishda tahlil va umumlashtirish, ulgurji savdo tasnifini yoritishda tizimli tahlil usullaridan foydalanildi.


Tahlil va natija. Ulgurji savdoning yetarli darajada rivojlanmasli mamlakat tovar bozorlari faoliyati samaradorligini sezilarli darajada pasaytiradi. Bu esa, mahalliy ishlab chiqaruvchilarni ichki va tashqi bozorlarga chiqishiga o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Ichki va tashqi bozorlar haqidagi axborotlarni o‘z vaqtida olmaslik, tashqi muhitdagi o‘zgarishlarga kechikib javob berish, tovar harakati tizimini izdan chiqaradi. Ishlab chiqaruvchilarda tayyor mahsulotlar zaxirasi me’yoridan ortib ketadi. Bu esa korxonaning aylanma mablag‘larini “muzlab” qolishiga olib keladi. Natijada jiddiy moliyaviy qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

Ulgurji savdoning iqtisodiyotdagi o‘rni va ahamiyati u bajaradigan funksiyalarda namoyon bo‘ladi. Erkin bozor sharoitida ulgurji savdoning funksiyalari muhim ahamiyatga ega. Ulgurji savdoning asosiy vazifasi tovar va xizmatlarga bo‘lgan bozor talabiga muvofiq mahsulot taklifini tizimli tartibga solishdan iborat. Ulgurji savdo ko‘p funksiyalarni bajaradi. Ko‘plab mutaxassislarning ilmiy tadqiqotlarida ulgurji savdoning funksiyalarini ikki guruhga bo‘lishmoqda: makro darajadagi va mikro darajadagi funksiyalar (1-rasm).

Mikro darajadagi ulgurji savdo funksiyalari ulgurji sotuvchilarning tijorat sheriklari bilan bevosita munosabatlarini qamrab oladi va ular quyidagilardan iborat:

- shartnomalar tuzish, ularni bajarish;
- tovarlarning ishlab chiqarish assortimentini savdoga aylantirish;
- sotilgan tovarlarga bo‘lgan talabning o‘zgarishidan bozorni sug‘urta qilish maqsadida tovar zaxiralarini shakllantirish;
- ulgurji xarid qilingan tovarlarni saqlash;
- shartnoma munosabatlari subyektlariga maslahat yordamini tashkil etish;
- tovarlarni keyinchilik qadoqlash, o‘rab-joylash, sifatini yaxshilash bilan ishlab chiqarishni takomillashtirish.

Yuqoridagilardan tashqari mutaxassislar ulgurji savdoning asosiy funksiyalari quyidagilarni o‘z ichiga olishi kerak degan fikrni ilgari surishadi:



1-rasm. Ulgurji savdoning funksiyalari¹

bozor talabi va taklifi, xaridorlar haqidagi ma'lumotlarni yig'ish va qayta ishlash;
 tovar assortimentini shakllantirish va xarid funksiyasi;
 mahsulotlarni omborlashtirish va saqlash funksiyasi;
 tashish funksiyasi (ko'pincha ulgurji sotuvchilar sotiladigan mahsulotlarni sotish joylariga yetkazib berishni tashkil qiladilar);

bozorda taqsimot funksiyasi (ulgurji savdo korxonalarini kerakli bo'lgan tovar zaxirasini tashkil etadi, buyurtmalarni bajaradi);

tovarlarni bozorda siljitish funksiyasi;

yetkazib berish va sotishni moliyalashtirish funksiyasi;

maslahat xizmatlarini ko'rsatish.

Mamlakatimizda ulgurji savdoning rivojlanishi sobiq totalitar tizimidan keyingi davrda mahsulotlarni markazlashtirilgan taqsimotining bekor qilinishi, zamonaviy sharoitlarga javob beradigan ulgurji savdo tizimini shakllantirish va rivojlantirish bilan bog'liq bo'lmoqda.

Bunda esa bizning fikrimizcha, ulgurji savdoni tashkil etish va boshqarish mexanizmi ham juda muhim ahamiyatga ega. Ulgurji savdo faoliyati bugungi kunda bir necha shakl va ko'rinishlarda tashkil etilmoqda. Ulgurji savdo bilan shug'ullanuvchi korxonalar o'zlarining tashkiliy-huquqiy maqomi, mulk shakli, faoliyat ko'lamining kengligi va mustaqilligiga ko'ra farqlanadi. Ilmij adabiyotlarda ham ulgurji savdo bilan shug'ullanuvchilarning bir qator turlari keltirilmoqda


O'zbekiston Respublikasining O'zDT 005:2011 Davlat standarti "O'zbekiston Respublikasi umumdavlat tasniflagichi. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari tasniflagichi (2 tahrir)"ning G "Ulgurji va chakana savdo; motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash" seksiyasida ulgurji savdo bilan shug'ullanuvchi subyektlarning tasnifi keltirilgan. Unga ko'ra, ulgurji savdo korxonalarini, ya'ni o'zi sotayotgan tovarga egalik huquqini oluvchi ulgurji sotuvchilar; sanoatga xizmat ko'rsatishga ixtisoslashgan ulgurji sotuvchilar, birjachilar, ulgurji savdo korxonalarini; tog'-kon sanoati korxonalarini o'z mahsulotini sotish uchun saqlab turuvchi, vazifalari zavod yoki shaxtalardan to'g'ridan-to'g'ri ortish yo'li bilan bajariluvchi buyurtma qabul qilish bilan cheklanmaydigan eksportyorlar, importyorlar,

¹ Л.Ю.Ананьева. Основные функции оптовой торговли. Справочник от автор – 24.
https://spravochnick.ru/marketing/optovaya_torgovlya/osnovnye_funkcii_optovoy_torgovli/

kooperativ birlashmalar, filiallar va sotish bo‘yicha byurolar kabi tijorat korxonalarining asosiy turlari kiradi. Shuningdek qishloq xo‘jalik mahsulotlarini sotish bilan shug‘ullanuvchi vositachilar va agentlar, tayyorlovchi va kooperativ birlashmalar ham kiritilgan.

O‘zbekiston Respublikasining O‘zDT 005:2011 Davlat standarti “O‘zbekiston Respublikasi umumdavlat tasniflagichi. O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari tasniflagichi (2 tahrir)”ning G “Ulgurji va chakana savdo; motorli transport vositalari va mototsikllarni ta‘mirlash” seksiyasining 45-bo‘limi “avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta‘mirlash” va 46-bo‘lim “avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo” ulgurji savdo faoliyatining to‘liq tasnifi keltirilgan. 46-bo‘lim o‘z hisobidan yoki shartnoma asosida (komission savdo) ulgurji savdoni ichki ulgurji savdoni qo‘shgan holda, shuningdek, xalqaro ulgurji savdoni (import/eksport) o‘z ichiga oladi.

Xalqaro iqtisodiy faoliyatlar tasniflagichiga ko‘ra ham ulgurji savdo faoliyati 46-bo‘lim, 461-469-guruh va sinfda faoliyatning to‘liq tasnifi keltirilgan.



2-rasm. Xalqaro iqtisodiy faoliyat tasniflagichi standartiga ko‘ra ulgurji savdo faoliyatining tasnifi¹

Xulosa va takliflar. Mamlakatimizda mahalliy xomashyo resurslarni chuqur qayta ishlash, import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishni oshirish, sanoatda amalga oshirilib kelinayotgan diversifikatsiya, iste‘mol bozorini yanada to‘yinishini ta‘minlashda ulgurji savdoning roli va ahamiyati sezilarli darajada oshmoqda. Qolaversa, ulgurji savdo mahalliy tovarlar sifatini yaxshilashga ta‘sir etishini, tovarlarning ham ichki, ham tashqi bozorlarda mustahkam o‘rin egallashiga xizmat qilishini alohida ta‘kidlash lozim.

Demak, ulgurji savdo korxonalarini tovar ishlab chiqaruvchilar, chakana savdo korxonalarini, vositachi korxonalarini va boshqa xaridorlar o‘rtasida iqtisodiy aloqalarni o‘rnatish, tovarlar ayriboshlashni tashkil etadi. Ulgurji savdo rivojlanishining asosiy ko‘rsatkichi bo‘lib, ishlab chiqarish korxonalarining xomashyo, yarim tayyor mahsulotlar, ehtiyot qismlar, butlovchi qismlar va boshqa ishlab chiqarish vositalariga bo‘lgan ehtiyoji, aholining iste‘mol tovarlariga bo‘lgan talabi va xarid qobiliyati darajasi hisoblanadi. Ulgurji tovar aylanmasi o‘sishi, shuningdek, marketing nuqtayi nazaridan iste‘molchilarning xatti-harakatidagi xarid tanlovi, talabni shakllantirish va sotishni rag‘batlantirish tadbirlari, tovarlarning hayotiy sikli bosqichlari,

¹ International Standard Industrial Classification of All Economic Activities. Revision 4. ST/ESA/STAT/SER.M/4/Rev.4

logistik servis: me’yorida tovar zaxiralari bo’lishini ta’minlash, kerakli joyga, kerakli hajmdagi tovarlarni, o’z vaqtida yetkazib berish, sotuvdan keyingi servis kabilar bilan ham bog’liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. International Standard Industrial Classification of All Economic Activities. Revision 4. ST/ESA/STAT/SER.M/4/Rev.4
2. Coskun Samli & Adel I. EI-Ansary (2007). The role of wholesalers in developing countries. The International Review of Retail, Distribution and Consumer Research Journal, vol. 17, pp. 353-358
3. Hugh MacKeown (2007) Wholesaling and wholesaling research: A practitioner’s viewpoint. The International Review of Retail, Distribution and Consumer Research Journal, vol. 17, pp. 413-422
4. O’zbekiston Respublikasi umumdavlat tasniflagichi. O’zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari tasniflagichi (2 taxrir) – O’zDT 005:2011
5. Philip Kotler. Marketing essentials. Prentice-Hall, 1984. 556 pages.
6. Национальный стандарт Российской Федерации. ГОСТ 51303-2013. ТОРГОВЛЯ. Термины и определения. TRADE. Terms and definitions.
7. Л.Ю.Ананьева. Основные функции оптовой торговли. Справочник от автор – 24. https://spravochnick.ru/marketing/optovaya_torgovlya/osnovnye_funkcii_optovoy_torgovli/
8. Федько В.П. Основы маркетинга. Ростов н/Д: Феникс, 2001

<p>Д.Холмаматов Научно-теоретические соображения о роли и значении оптовой торговли в экономике Аннотация: в статье приведены определения ведущих ученых о роли и значении оптовой торговли в экономике страны, основных функциях, выполняемых оптовой торговлей, Госстандарте Республики Узбекистан УзДТ 005:2011 «Общая государственная классификация Республики Узбекистан». Изучена классификация оптовой торговли согласно Классификатору экономической деятельности Республики Узбекистан (2 редакции)» и Классификации внешнеэкономической деятельности. Ключевые слова: оптовая торговля за свой счет, оптовая торговля на основе платежа или договора, неспециализированная оптовая торговля, специализированная оптовая торговля, функция связи покупатель-покупатель, функция связи покупатель-поставщик.</p>	<p>D.Kholmamatov Scientific and theoretical considerations on the role and significance of wholesale trade in the economy Abstract: the article provides definitions from leading scientists about the role and importance of wholesale trade in the country's economy, the main functions performed by wholesale trade, and the State Standard of the Republic of Uzbekistan UzDT 005:2011 “General state classification of the Republic of Uzbekistan”. The classification of wholesale trade according to the classification of economic activities of the Republic of Uzbekistan (2 revision)" and the classification of international economic activities was studied. Keywords: wholesale trade on own account, wholesale trade on the basis of payment or contract, non-specialized wholesale trade, specialized wholesale trade, customer-buyer communication function, customer-supplier communication function.</p>
---	--

Shohida Kamoliddin qizi Jo’raboyeva – Namangan muhandislik-texnologiya instituti doktoranti

EKSPORT SALOHIYATI TUSHUNCHASINING KONSEPTUAL ASOSLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada eksport salohiyatini oshirish dolzab masala ekanligi asoslangan hamda eksport salohiyatini oshirish masalalari bilan shug’ullangan olimlarining “Salohiyat”, “Ishlab chiqarish salohiyati”, “Iqtisodiy salohiyat” va “Eksport salohiyati” tushunchalari bo’yicha fikrlari o’rganilgan, taqqoslangan, umumlashtirilgan, xulosalar yasalgan va mualliflik ta’rifi keltirilgan.
Kalit so’zlar: salohiyat, ishlab chiqarish salohiyati, iqtisodiy salohiyat, eksport, eksport hajmi, eksport salohiyati, xususiy eksport salohiyati, umumiy eksport salohiyati, resurs, raqobat, daromad.

Kirish. So’nggi yillarda mamlakatimizda to’qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini rivojlantirish, soha korxonalarining investitsiya va eksport faoliyatini qo’llab-quvvatlash bo’yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilishi natijasida respublikada ishlab chiqarilayotgan paxta

ISSN 2091-5187

❧ “СЕРВИС” ❧

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят
бўлимида нашрга тайёрланди.

27.05.2024 йилда теришга берилди. 14.06.2024 йилда босишга рухсат этилди.
Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84_{1/8}. “Times” гарнитураси. Офсет
босма усули. Шартли босма табоғи 15,76. Ҳисоб-нашриёт
табоғи 12,5. Адади 100 нусха. Буюртма № 0076В/24

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг
матбаа бўлимида чоп этилди.
Лицензия № 025316.
Реестр № Х-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2024.